


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

***60811100 – Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash
texnologiyasi bakalavriat ta'lim yo'nalishining***

MALAKA TALABI

Toshkent-2026



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Toshkent davlat agrar universiteti:

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2026 yil "22" 08 dagi 357 – sonli buyrug'i bilan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	5
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar	7
3.	Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	8
4.	Fanlar katalogining tuzilishi	9
	Bibliografik ma’lumotlar.....	10
	Kelishuv varag‘i.....	11

1. Umumiy tavsifi

60811100 – Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, masofaviy va kechki ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me‘yoriy muddati 3 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi 60811100 – Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalarining talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas‘ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor- o‘qituvchilari;

- ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va o‘quv dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasasining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

- oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning otalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.

60811100 – Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi “Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash” ta’lim sohasiga oid yo‘nalish bo‘lib, introduksiya qilingan dorivor o‘simliklar, ulardan oqilona foydalanish, farmatsevtika sanoatining dorivor o‘simliklar xom-ashyo mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlash maqsadida ishlab chiqish ;

- farmatsevtika sanoatining dorivor o‘simliklar xom-ashyo mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda ishtirok etish;

- dorivor o‘simliklar yetishtirish va dastlabki qayta ishlash tizimida qo‘llaniladigan ishlab chiqarish jarayonlari;

- dorivor o‘simlik xom-ashyolarini tayyorlash, dastlabki qayta ishlash va saqlash hamda ishlash jarayonlarini optimallashtirish;

- ilmiy – tadqiqot jarayonlari;
- dorivor o‘simliklar yetishtirish va dastlabki qayta ishlash, xom – ashyo mahsulotlarini saqlash hamda ularga birlamchi ishlov berish korxonalari va tashkilotlarning boshqaruv tizimlariga doir masalalar bilan bog‘liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.

- davlat va nodavlat tashkilot, korxona va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar;
- iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida tashkilot, korxona va muassasalar samaradorligi va natijadorligini oshirish jarayonlari;
- boshqaruvda vaziyatli va tizimli yondoshuv tamoyillarini tadbiq etish, davlat va maxalliy boshqaruv qarorlarini amalga oshirish jarayonlari;
- tashkilot va korxonalarda zamonaviy boshqaruv tizimini tashkil etish, tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish, mehnatni rag‘batlantirish jarayonlari.

60811100 – Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o‘tgandan keyin, professional ta‘lim muassasalarida ta‘limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan majburiy va tanlov fanlarini o‘qitish bo‘yicha pedagogik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘ladi. Bakalavriat yo‘nalishlari bundan mustasno.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- tashkiliy-boshqaruv
- loyiha tadqiqot;
- ilmiy-tadqiqot;
- amaliy ishlab chiqarish;

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi ta‘lim yo‘nalishi milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohaları, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Ilmiy–tadqiqot faoliyatida:

dala tajribalarida variantlar va takrorlanishlarni joylashtirish, kuzatuvlar o‘tkazish;

ilmiy ish hisoboti uchun ma‘lumotlar tayyorlash;

qaror qabul qilish, bilimlarni amaliyotda qo‘llash, ish samaradorligi va sifatiga javob berish;

respublika hamda xorijda chop etilgan dorivor o‘simliklar sohasiga oid ilmiy-texnik axborotlarning ilmiy manbalarini o‘rganish;

dorivor o‘simliklar bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;

mavzu (topshiriq) bo‘yicha ilmiy ma‘lumotlarni yig‘ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma‘lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak.

Tashkiliy–boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatida:

dorivor o‘simliklar sohasida tegishli texnologiya va texnik vositalardan foydalanish samaradorligi ko‘rsatkichlarini hisobga olish va baholash;

ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan moddiy va mehnat resurslarini rejalashtirish;

ishlab chiqarish jarayonini boshqarish;

boshqaruv qarorni qabul qilish;

zamonaviy axborot texnologiyalari tizimlaridan foydalanishni hisobga olgan holda ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

atrof-muhitni muhofaza qilish va hayot faoliyati xavfsizligi, texnika xavfsizligi talablari asosida dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash jarayonlari monitoringini amalga oshirish;

kasbiy muammolar yechimini topish;

ijrochi jamoa ishini tashkil qilish;

dorivor o‘simliklarni yetishtirishda texnologik kartadan foydalanish;

dorivor o‘simliklar sohasida samarali va resurs tejamkor faoliyatni tashkil eta olish;

dorivor o‘simliklarni yetishtirishda va parvarishlash bo‘yicha ishlab chiqarish jarayonlari, agroteknik tadbirlarning bajarilishi sifatini nazorat qilish;

zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikalari va kommunikatsion vositalarni amaliyotda keng qo‘llash;

ilg‘or texnologik jarayonlarni qo‘llash;

ilmiy asoslangan tizimlarni qo‘llash va tavsiya qilish;

yangi samarali texnologiyalarni ishlab chiqish va oqilona foydalanish;

dorivor o‘simliklar tabiiy resurslarini muhofaza qilish va hayot faoliyati xavfsizligi qoidalariga rioya qilish;

xizmat ko‘rsatish sohasi me‘yoriy- huquqiy hujjatlaridan foydalana olish;

dorivor o‘simliklar sohasida servis xizmati ko‘rsata olish.

Axborot tahliliy faoliyatida:

texnologik jarayonlarni bajarish sifatini nazorat qilish;

zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikalari va kommunikatsion vositalarni amaliyotda keng qo‘llash;

ilg‘or texnologik jarayonlarni qo‘llash;

ilmiy asoslangan tizimlarni qo‘llash va tavsiyanomalar berish;

yangi samarali texnologiyalarni ishlab chiqish va oqilona foydalanish;

tabiiy resurslarni muhofaza qilish va hayot faoliyati xavfsizligi qoidalarini ta‘minlash.

Loyiha–texnologik va texnologik–ishlab chiqarish faoliyatida:

dorivor o‘simliklar sohasi bo‘yicha loyihalar tuzish mehnat jamoasini shakllantirish va ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish;

dorivor o‘simliklarga ixtisoslashgan xo‘jaliklarni loyihalash uchun zaruriy tayyorgarlik;

faoliyat natijalarini tahlil va sintez qilish, tashkil etish va rejalashtirish, baholash, fundamental, umumkasbiy va amaliy bilimlardan foydalanish qobiliyati va ularga tayyorgarlik;

mustaqil ishlash qobiliyati, ish jarayonlarini identifikatsiyalash va mahoratdan foydalanish;

loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;

amaliyotda axborot texnologiyalarining xalqaro va kasbiy standartlarni, zamonaviy uslublarini, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo‘llash.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.

Davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilish, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilishi;

axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo‘llay bilishi, axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qila olishi;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishi;

dorivor o‘simliklar sohasida mehnatni muhofaza qilish va hayot faoliyati xavfsizligi, texnika xavfsizligi talablari asosida ishlab chiqarish jarayonlarini monitoring nazorat qilishi;

sohaga oid muammolarni yechimini topishi va ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilishi;

fikrlar har xil bo‘lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilishi;

birlamchi ishlab chiqarish bo‘g‘in ishini tashkil qilish va uni boshqarishi;

bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish, bajarish va nazorat qilish hamda ish natijalarini baholashi;

dorivor o‘simliklar yetishtirish bo‘yicha zamonaviy texnologiyalardan foydalanishi;

dorivor o‘simliklarga ixtisoslashgan xo‘jaliklarda ekinlarni yetishtirish texnologik jarayonlarni boshqarishi;

zamonaviy bozor talablarini, raqobatdoshlikni ta‘minlashga qaratilgan xo‘jalik strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

innovatsion loyihalar, biznes-rejalar va shartnomalarni shakllantirish hamda ijrochilar faoliyatini muvofiqlashtirishi;

tuproq unumdorligini oshirishga va qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorligini ko‘paytirishga yo‘naltirilgan tadbirlarni ishlab chiqishni bilishi;

zararkunandalar, o‘simliklar kasalliklari va begona o‘tlar bilan kurashish bo‘yicha texnologiyalarni ishlab chiqishni biladi va joriy eta olishi;

dorivor o‘simliklar sohasida ilmiy-tadqiqotlar o‘tkaza olishi;

dorivor o‘simliklar etishtirishda agrotexnik ishlov berishning ilg‘or uslublarini bilishi va joriy eta olishi;

hosilni yig‘ishtirish, yig‘ishtirib olingan hosilni saqlash joylariga tashish va saqlash bo‘yicha ishlarning bajarilishini nazorat qila olishi;

ilmiy hujjatlar va hisobotlarni tayyorlay olishi;

dorivor o‘simliklar mahsulotlarini ishlab chiqarishni samarali va resurs tejamkor faoliyatini tashkil etish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

3. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.

Malakaviy amaliyot – majburiy va tanlov fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

1. O‘quv tanishuv amaliyoti;
2. Ishlab chiqarish amaliyoti;
3. Bitiruv oldi amaliyoti.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning xajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	4200	140	1-6
1.01	O'EYTB1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	FALB1304	Falsafa	120	4	3
1.03	XJTNB1108	Xorijiy til	240	8	1,2
1.04	O'T O'SQB1204	O'zbek (rus) tili. O'zbek tilini sohada qo'llash	120	4	2
1.05	BO'FZB1104	Botanika va o'simliklar fiziologiyasi	120	4	1
1.06	ENQXAKTB1204	Qishloq xo'jaligida IT va raqamli texnologiyalar	120	4	2
1.07	ANFKBKB1204	Analitik, fizkolloid va biokimyo	120	4	2
1.08	DIN1104	Dinshunoslik	120	4	1
1.09	DO'FSB1108	Dorivor o'simliklar florasi va sistematikasi	240	8	1,2
1.10	XTDO'B1108	Xalq tabobati dorivor o'simliklari	240	8	1,2
1.11	O'IDO'B1106	O'zbekistonning istiqbolli dorivor o'simliklari	180	6	1
1.12	DO'RSB1204	Dorivor o'simliklar reproduktiv strategiyasi	120	4	2
1.13	DO'UKB1310	Dorivor o'simliklar urug'chiligi va ko'chatchiligi	300	10	3,4
1.14	ZXDO'B1504	Ziravor va xushbo'y dorivor o'simliklar	120	4	5
1.15	DO'BEB1308	Dorivor o'simliklar biologiyasi va ekologiyasi	240	8	3,4
1.16	FARGZB 1310	Farmakognoziya	300	10	3,4
1.17	DO'RESB 1404	Dorivor o'simliklar resursshunosligi	120	4	4
1.18	FARDO'MB1504	Farmakopeya dorivor o'simliklari	120	4	5
1.19	DO'INDB 1606	Dorivor o'simliklar introduksiyasi	180	6	6
1.20	DO'XATQITM 1510	Dorivor o'simlik xom-ashyosini tayyorlash va dastlabki qayta ishlash texnologiyasi	300	10	5,6
1.21	DO'ETM1510	Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi	300	10	5,6
1.22	TDO'M1504	Tabiiy dorivor o'simliklar	120	4	5
1.23	DO'IIASB 1604	Dorivor o'simlikshunoslikda ilmiy izlanish asoslari	120	4	6
1.24	O'DO'B1604	O'rmon dorivor o'simliklari	120	4	6
2.00		Tanlov fanlari	660	22	3,4,6
2.00		Tanlov fanlari	660	22	3,4,6
	Kvalifikatsiya	agronom, dorishunos, dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash bo'yicha texnolog			
		Jami	4740	162	
		Malakaviy amaliyotlar	540	18	2,4,6
		Yakuniy davlat attestatsiyasi			
		Jami	540	18	
		HAMMASI	5400	180	

Bibliografik ma’lumotlar

UO‘K 633.88

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so‘zlar:

Kasbiy faoliyat turi, ta’lim yo‘nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o‘quv reja va o‘quv dasturlari, profil, o‘qib-o‘rganish natijalari, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o‘quv jarayoni, dorivor o‘simliklarni yetishtirish texnologiyasi, mustaqil ta’lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o‘quv fanlari bloki, oliy ta’lim muassasasi, ta’lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:




Toshkent davlat agrar universiteti

Rektor N.N.Oblomuradov

2026 yil "05" 06

M.O'.

KELISHILGAN:



O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish va global hamkorlik
markazi

Direktor A.Xoliqov

2026 yil "14" 08

M.O'.

O'zbekiston Respublikasi
Qishloq xo'jaligi vazirligi
Ilm-fan, innovatsiyalar va ta'limni
rivojlantirish boshqarmasi

Boshlig'i T.Ataqulov

2026 yil "05" 06

M.O'.

O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti

Ilmiy ishlar bo'yicha
direktor o'rinbosari

Mamutov.B.X

2026 yil "05" 06

M.O'.

Guliston davlat universiteti

Rektor M.T.Xodjiyev

2026 yil "05" 06

M.O'.

Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta
ishlash ilmiy ishlab chiqarish markazi

Direktor B.E.Izbasarov

2026 yil "05" 06

M.O'.

GERBOFARM X/K

Direktor B.Iskandarov

2026 yil "05" 06

M.O'.

